Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек ўғли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жaxonгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEKANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVIIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIYAVIIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIYAVIIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Quدرات qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	



AGROSANOAT INNOVATION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdievich	
TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNING IMITATION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	2352
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITION FAOLIYATINI INNOVATION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	2391
Qurbonov Xayrilla	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2399
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2404
Voxidov Oybek Roziqovich	



O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Voxidov Oybek Roziqovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"

ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: oybekv1980@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2614-7250

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda islom bankchiligi joriy etishning nazariy va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Islom bankchiligi risklarni bo'lishish, real aktivlarga tayangan moliyalashtirish hamda islom moliyasi tamoyillariga muvofiqlik asosida faoliyat yurituvchi muqobil moliyaviy tizim sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida islom bankchiligining asosiy konsepsiyalari, fundamental prinsiplari va ilmiy yondashuvlari tizimlashtirilib, ularni milliy bank tizimiga moslashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, islom bankchiligi modellari va ularni tanlash mezonlari tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich va moslashuvchan joriy etish yondashuvi metodologik jihatdan eng maqbul variant sifatida asoslangan. Maqolada islom bankchiligini samarali joriy etish uchun normativ-huquqiy, institutsional va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: islom bankchiligi, islomiy moliya, islom moliyasiga muvofiqlik, risklarni bo'lishish, moliyaviy barqarorlik, bank tizimini diversifikatsiya qilish.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations for the implementation of Islamic banking in Uzbekistan. Islamic banking is analyzed as an alternative financial system based on risk-sharing, asset-backed financing, and compliance with Sharia principles. The study systematizes the key concepts, fundamental principles, and scientific approaches of Islamic banking and explores issues related to their adaptation to the national banking system. In addition, various Islamic banking models and selection criteria are analyzed, and a gradual and flexible implementation approach is substantiated as the most methodologically appropriate option for the conditions of Uzbekistan. The article also develops practical recommendations aimed at improving regulatory, institutional, and risk management mechanisms to ensure the effective introduction of Islamic banking.

Key words: Islamic banking, Islamic finance, Sharia compliance, risk sharing; financial stability, banking system diversification.

Аннотация. В статье исследуются теоретические и методологические основы внедрения исламского банкинга в Узбекистане. Исламский банкинг рассматривается как альтернативная финансовая система, функционирующая на принципах разделения рисков, финансирования, основанного на реальных активах, и соответствия нормам шариата. В ходе исследования систематизированы основные концепции, фундаментальные принципы и научные подходы исламского банкинга, а также раскрыты вопросы их адаптации к национальной банковской системе. Проанализированы модели исламского банкинга и критерии их выбора, при этом поэтапный и адаптивный подход к внедрению в условиях Узбекистана обоснован как методологически наиболее целесообразный вариант. В статье также разработаны практические рекомендации по совершенствованию нормативно-правовых, институциональных и механизмов управления рисками для эффективного внедрения исламского банкинга.

Ключевые слова: исламский банкинг, исламские финансы, соответствие шариату, разделение рисков, финансовая устойчивость, диверсификация банковской системы.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon moliya tizimida islom bankchiligi barqaror rivojlanish, moliyaviy inklyuziya va risklarni adolatli taqsimlashga yo'naltirilgan muqobil moliyaviy model sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Islom bankchiligi foizsiz moliyalashtirish, real aktivlarga tayangan bitimlar hamda islom moliyasi tamoyillariga asoslangan iqtisodiy munosabatlar orqali moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Ushbu model bugungi kunda nafaqat musulmon davlatlarda, balki Yevropa va Osiyo mamlakatlarida ham muvaffaqiyatli joriy etilib, moliya bozorining muhim segmentiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida moliya-bozor islohotlarining jadallashuvi, bank tizimini diversifikatsiya qilish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ehtiyojlarini kengroq qondirish jarayonida islom bankchiligi institutlarini joriy etish dolzarb va istiqbolli yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Aholining muayyan qismi uchun islom moliyasi tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning mavjudligi, shuningdek, real sektorni uzoq muddatli va risklarni bo'lishish asosida moliyalashtirish imkoniyatlari islom bankchiligining amaliy ahamiyatini oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, islom bankchiligi an'anaviy bank tizimini to'ldiruvchi va uning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi samarali mexanizm sifatida qaralmoqda.

Islom bankchiligini joriy etish jarayoni alohida moliyaviy mahsulotlarni tatbiq etish bilangina cheklanmay, balki puxta ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslarni, konseptual yondashuvlarni hamda ilmiy jihatdan asoslangan tamoyillarni talab etadi. Xususan, islom moliyasiga muvofiqlik, risk va daromadni bo'lishish, moliyaviy bitimlarning real iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligi kabi fundamental prinsiplar islom bankchiligi metodologiyasining markaziy elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islom bankchiligining nazariy va metodologik asoslari xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, mazkur yo'nalish foizsiz moliyalashtirish, risklarni bo'lishish va real aktivlarga asoslangan moliyaviy tizim sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar islom bankchiligini an'anaviy bank tizimini to'ldiruvchi, barqarorlik va adolat tamoyillariga tayangan muqobil moliyaviy model sifatida baholaydilar.

Iqbal va Mirakhor (2011) islom bankchiligining konseptual asoslarini tahlil qilib, uni adolat, risklarni bo'lishish va real iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqlikka asoslangan moliyaviy tizim sifatida izohlaydi. Mualliflar ushbu model moliyaviy spekulyatsiyani cheklash orqali tizimli risklarni kamaytirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar [1].

Chapra (2009) islom bankchiligining asosiy maqsadi ijtimoiy adolat va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdan iborat ekanini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, islom moliyasi tamoyillariga asoslangan moliyaviy munosabatlar daromad va riskning muvozanatli taqsimlanishiga xizmat qiladi [2].

Islom bankchiligida moliyaviy vositalarning nazariy asoslari Usmani (2002) tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Muallif islomiy moliyaviy bitimlar nafaqat islom moliyasiga muvofiq bo'lishi, balki real iqtisodiy mazmunga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi [3].

Obaidullah (2016) islom bankchiligining metodologik va institutsional jihatlarini o'rganib, islom moliyasiga muvofiqlikni ta'minlovchi mexanizmlar, islom moliyasi kengashlari va maxsus nazorat tizimlarining muhim ahamiyatini asoslab beradi [4].

Islom bankchiligini moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq jihatlarini Hasan va Dridi (2010) tomonidan empirik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, islom banklari global moliyaviy inqiroz davrida an'anaviy banklarga nisbatan yuqori darajadagi barqarorlikni namoyon etgan [5].

Beck, Demirgüç-Kunt va Merrouche (2013) islom va an'anaviy banklar faoliyatini solishtirib, islom banklarining risk profili va aktivlar sifati nisbatan barqarorroq ekanini aniqlagan [6].

Islom bankchiligini joriy etishning institutsional modeli Aggarwal va Yousef (2000) tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan bo'lib, mualliflar islom banklari risklarni bo'lishishga asoslangan moliyaviy vositalar orqali real sektor bilan kuchli va barqaror aloqani shakllantirishini ta'kidlaydilar [7].

Shuningdek, Kammer va hammualliflar (2015) islom bankchiligini joriy etish jarayonida huquqiy-me'yoriy baza, moliyaviy infratuzilma hamda inson kapitalining tayyorgarligi muhim metodologik omillar ekanini qayd etadilar [8].

Umuman olganda, xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, islom bankchiligi puxta ishlab chiqilgan nazariy va metodologik poydevorga ega bo'lib, uni muvaffaqiyatli joriy etish konseptual yondashuvlar, islom moliyasi tamoyillari va institutsional mexanizmlarning uyg'unligini talab etadi. Ushbu ilmiy qarashlar O'zbekiston sharoitida islom bankchiligini joriy etish metodologiyasini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [1-8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda islom bankchiligini joriy etishning nazariy va metodologik asoslarini o'rganishda umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli hamda mantiqiy-tahliliy yondashuvlarga asoslanib, islom bankchiligi konsepsiyalari, prinsiplari va modellarini yaxlit moliyaviy tizim sifatida chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy va umumlashtirish usullari orqali islom bankchiligiga oid xorijiy nazariy yondashuvlar o'rganildi hamda ularning O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari



baholandi. Shuningdek, konseptual tahlil usuli yordamida islom bankchiligini joriy etishning metodologik modeli shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari asosida nazariy xulosalar chiqarilib, islom bankchiligini milliy bank tizimiga samarali integratsiya qilishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda islom bankchiligini joriy etish masalasi bank tizimini diversifikatsiya qilish, moliyaviy inkluziyani kengaytirish hamda real sektorni barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, islom bankchiligi faqat alohida moliyaviy mahsulotlar majmui sifatida emas, balki o'ziga xos iqtisodiy-falsafiy asosga ega bo'lgan kompleks moliyaviy tizim sifatida qaralishi lozim. Mazkur tizimni samarali joriy etish, avvalo, uning puxta shakllantirilgan nazariy va metodologik poydevoriga tayanishni talab etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, islom bankchiligining markaziy konsepsiyasi moliyaviy munosabatlarni real iqtisodiyot bilan bevosita bog'lash va risklarni adolatli taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. An'anaviy bank modelida daromad asosan foiz orqali kafolatlangan bo'lsa, islom bankchiligida daromad real savdo, ijara yoki sheriklik faoliyati natijasida shakllanadi. Ushbu yondashuv moliyaviy resurslarning spekulativ aylanishini cheklab, ularni ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga samarali yo'naltirishga xizmat qiladi hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Metodologik jihatdan qaralganda, islom bankchiligi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bir necha asosiy elementlar uyg'unligiga tayanadi. Ushbu elementlar konseptual g'oyalar, fundamental prinsiplar va ilmiy-amaliy yondashuvlar orqali namoyon bo'ladi. Ularning o'zaro uyg'un va izchil joriy etilishi islom bankchiligining mazmunan to'liq va samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Shu sababli, O'zbekiston sharoitida islom bankchiligini joriy etishning metodologik asoslarini baholashda konsepsiya – prinsip – yondashuv – amaliy mexanizm o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu bog'liqlik va ularning o'zaro uyg'unligi quyidagi jadvalda tizimli ravishda umumlashtirilgan.

1-jadval. Islom bankchiligini joriy etishning konseptual va metodologik asoslari

Element	Tavsifi	Bank amaliyotidagi ahamiyati
Konseptual asos	Risklarni bo'lishish va real aktivlarga tayangan moliyalashtirish	Real sektorni moliyalashtirish va tizimli risklarni kamaytirish
Asosiy prinsiplar	Foiz (riba) taqiqi, noaniqlik va spekulatsiyani cheklash, islom moliyasiga muvofiqlik	Mahsulotlarning iqtisodiy mazmunini mustahkamlash
Institutsional yondashuv	Islom moliyasi nazorati, ichki komplayens, audit va boshqaruv mexanizmlari	Islomiy mahsulotlarning ishonchiligi va barqarorligi
Riskka asoslangan yondashuv	Islom moliyasi riski, aktiv riski va operatsion risklarni boshqarish	Bank faoliyatida xavflarni minimallashtirish
Tartibga solish yondashuvi	Maxsus normativlar, prudensial talablar va nazorat mexanizmlari	Moliya tizimi barqarorligini ta'minlash

Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va xalqaro amaliyot tahlili asosida tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, islom bankchiligini joriy etish jarayoni ko'p bosqichli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Konseptual asoslar bank faoliyatining umumiy yo'nalishini belgilab bersa, prinsiplar ushbu yo'nalishni aniq qoidalar orqali mustahkamlaydi. Institutsional va riskka asoslangan yondashuvlar esa mazkur prinsiplarning bank amaliyotida izchil va samarali ishlashini ta'minlaydi.

Olingan natijalar O'zbekiston sharoitida islom bankchiligini joriy etishning eng samarali modeli bosqichma-bosqich va moslashuvchan metodologiyaga tayanishini ko'rsatadi. Dastlab konseptual va normativ asoslarni shakllantirish, keyingi bosqichda esa ularni banklarning ichki tizimlari, risk boshqaruvi va nazorat mexanizmlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv islom bankchiligini milliy bank tizimiga mos, barqaror va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda joriy etish imkonini yaratadi.

Islom bankchiligini joriy etishda muhim metodologik masalalardan biri – tegishli tashkiliy va institutsional modelni tanlashdir. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, islom bankchiligi yagona universal model asosida emas, balki mamlakatning moliyaviy tizimi rivojlanish darajasi, huquqiy muhit, bank infratuzilmasi va bozor ehtiyojlariga mos ravishda turli shakllarda joriy etiladi. Shu bois, model tanlash jarayoni nazariy tamoyillar bilan bir qatorda metodologik moslashuvni ham talab etadi.



Tahlil natijalariga ko'ra, islom bankchiligi amaliyotida uchta asosiy model keng qo'llaniladi. Birinchi model – to'liq islom banklari modeli bo'lib, bunda bank barcha operatsiyalarini islom moliyasi tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshiradi. Ushbu modelning ustun jihati bank faoliyatida foizga asoslangan operatsiyalarning mavjud emasligi hamda islom moliyasiga muvofiqlik tizimining markazlashtirilgan holda ishlashidir. Shu bilan birga, mazkur model yuqori institutsional tayyorgarlik, maxsus normativ-huquqiy baza va rivojlangan bozor infratuzilmasini talab etadi.

Ikkinchi model – islamic windows, ya'ni an'anaviy tijorat banklari tarkibida islomiy moliyaviy mahsulotlarni joriy etish modeli hisoblanadi. Ushbu yondashuvda bank umumiy tuzilmani saqlab qolgan holda, alohida islom moliyasiga muvofiq mahsulot va xizmatlarni taklif etadi. Model metodologik jihatdan moslashuvchan bo'lib, islom bankchiligini bosqichma-bosqich joriy etish imkonini beradi. Bunda islom moliyasiga muvofiqlikni ta'minlash, daromadlarni aniq ajratish va operatsion jarayonlarni tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

Uchinchi model – gibril (aralash) model bo'lib, u to'liq islom banklari va islomiy oynalar elementlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu model odatda moliyaviy tizimi diversifikatsiya bosqichida bo'lgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Gibril yondashuv metodologik jihatdan moslashuvchan bo'lsa-da, institutsional muvofiqlashtirish va nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Islom bankchiligi modelini tanlashda bir qator metodologik mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, milliy bank tizimining institutsional tayyorgarligi va normativ-huquqiy bazasi e'tiborga olinishi lozim. Shuningdek, bank xodimlarining malakasi, islom moliyasi bo'yicha ekspertiza mavjudligi, axborot texnologiyalari infratuzilmasi hamda mijozlarning moliyaviy savodxonlik darajasi model tanlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida islom bankchiligini joriy etishda bosqichma-bosqich va moslashuvchan yondashuv metodologik jihatdan eng maqbul variant hisoblanadi. Dastlab islomiy moliyaviy mahsulotlarni an'anaviy banklar doirasida joriy etish orqali bozor talabini shakllantirish, keyingi bosqichda esa to'liq islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yish mumkin. Bunday ketma-ketlik risklarni samarali boshqarish, institutsional tajriba to'plash va islom moliyasiga muvofiq bank amaliyotini barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Shu tariqa, islom bankchiligi modellari tahlili shuni ko'rsatadiki, model tanlash masalasi nafaqat tashkiliy qaror, balki muhim metodologik tanlov hisoblanadi. To'g'ri tanlangan model islom bankchiligini milliy moliya tizimiga uyg'un integratsiya qilish, uning barqaror faoliyatini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, islom bankchiligi O'zbekiston bank tizimini diversifikatsiya qilish, real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim institutsional ahamiyatga ega. Islom bankchiligi nafaqat foizsiz moliyalashtirish mexanizmi, balki risklarni bo'lishish, real aktivlarga tayangan operatsiyalar va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslangan muqobil moliyaviy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, uni joriy etish jarayoni puxta ishlab chiqilgan nazariy va metodologik yondashuvlarga tayanishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, islom bankchiligini samarali joriy etish konseptual aniqlik, fundamental prinsiplar va ilmiy yondashuvlarning uyg'unligiga bog'liq. Foiz taqiqi, noaniqlik va spekulatsiyani cheklash, islom moliyasiga muvofiqlik hamda risklarni adolatli taqsimlash prinsiplari bank amaliyotida deklarativ darajada emas, balki operatsion jarayonlarga chuqur integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi zarur. Mazkur tamoyillarning izchil tatbiqi islom bankchiligining mazmunan to'liq va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Islom bankchiligi modellari tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sharoitida uni bosqichma-bosqich joriy etish metodologik jihatdan eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Dastlab an'anaviy tijorat banklari doirasida islomiy moliyaviy mahsulotlarni joriy etish orqali institutsional tajriba va bozor ishonchini shakllantirish, keyingi bosqichda esa to'liq islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv risklarni samarali boshqarish va moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchi, islom bankchiligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani bosqichma-bosqich takomillashtirish zarur. Xususan, islom moliyasiga muvofiq moliyaviy operatsiyalarni tartibga soluvchi maxsus me'yorlar va prudensial talablarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi, tijorat banklarida islom moliyasiga muvofiqlikni ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Islom moliyasi kengashlari, ichki islom moliyasi komplayensi va islom moliyasi auditori tizimlarining joriy etilishi islomiy moliyaviy mahsulotlarning ishonchligi va shaffofligini oshiradi.

Uchinchi, islom bankchiligida risklarni boshqarish tizimini moslashtirish zarur. Sheriklikka asoslangan moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq islom moliyasi riski, aktivlar riski va operatsion risklarni baholash hamda monitoring qilish mexanizmlarini ishlab chiqish bank amaliyoti uchun muhim hisoblanadi.



To'rtinchidan, islom bankchiligini rivojlantirishda inson kapitali omiliga alohida e'tibor qaratish lozim. Bank xodimlari, auditorlar va regulyator organlar mutaxassislari uchun islom moliyasi bo'yicha maxsus o'quv dasturlari va malaka oshirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, islom bankchiligini joriy etish jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan islom moliyasi nazorati va monitoring tizimlari islomiy moliyaviy mahsulotlarning samaradorligi, shaffofligi va boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, islom bankchiligi O'zbekiston moliya tizimida barqaror va muqobil moliyaviy yo'nalish sifatida shakllanishi uchun ilmiy asoslangan, bosqichma-bosqich va kompleks metodologik yondashuvni talab etadi. Mazkur tavsiyalarni amaliyotga izchil tatbiq etish islom bankchiligini milliy bank tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Iqbal Z., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. 2nd ed. Singapore: John Wiley & Sons, 2011. 432 p. P. 27-68.
2. Chapra M.U. The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help? Riyadh: Islamic Development Bank, 2009. 142 p. P. 45-78.
3. Usmani M.T. An Introduction to Islamic Finance. Karachi: Idaratul Ma'arif, 2002. 165 p. P. 87-115.
4. Obaidullah M. Islamic Financial Services. Jeddah: Islamic Research and Training Institute (IRTI), 2016. 256 p. P. 112-148.
5. Hasan M., Dridi J. The effects of the global crisis on Islamic and conventional banks // Journal of International Commerce, Economics and Policy. 2010. Vol. 1, № 2. P. 163-200.
6. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Merrouche O. Islamic vs. conventional banking: Business model, efficiency and stability // Journal of Banking & Finance. 2013. Vol. 37, № 2. P. 433-447.
7. Aggarwal R.K., Yousef T. Islamic banks and investment financing // Journal of Money, Credit and Banking. 2000. Vol. 32, № 1. P. 93-120.
8. Kammer A., Norat M., Piñón M., Prasad A., Towe C., Zeidane Z. Islamic finance: Opportunities, challenges, and policy options // IMF Staff Discussion Note. 2015. SDN/15/05. 34 p. P. 9-26.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
